



ZAMONAVIY TALABA VA UNING PSIXALOGIK QIYOFASI

Izaitullayeva Lazokat Eshimboyevna

Angren universiteti, Pedagogika va psixologiya ''kafedrasi

Anotatsiya: Mustaqil yurtimizning rivoji, ravnaqi va istiqboli ko'p jihatdan oliv maktab tayyorlayotgan mutaxassis larning mahoratiga bog'liq. Shu o'rinda talabalar guruhining shakllanishidagi ijtimoiy-psixologik o'ziga xos xususiyatlar mavjudligini ta'kidlash lozim. Ushbu maqola talabalar guruhining ijtimoiy-psixologik qirralarini ochib berishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: talabalar, ijtimoiylashuv, identifikatsiya, attraktsiya, ijtimoiy mavqe, kasbiy mavqe

Zamonaviy talabalar hozirgi kunda ijtimoiy-madaniy, siyosiy, iqtisodiy, ichki va tashqi xarakterdagi murakkab beqarorlikka yuz tutgan globallashuv hodisalari sharoitida shakllanmoqda. Bunday sharoitlar ta'sirida ularning aksariyati bevosita yolg'izlana boshlaydilar. Talabalik yoshi davri haqida gapirar ekan, rus psixolog, sotsiologi va antropologi I.S.Kon, bu davr aqliy xususiyatlarni tavsiflovchi, ijtimoiylashuvning yuqori cho'qqisi hisoblanuvchi, aqliy funktsiyalarning rivojlanishi, shaxsni shakllantirish davri, deb ataydi.

Talabalar deganda, moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishda ijtimoiy hayotga va mutaxassislikka oid rollarni muayyan qoida va maxsus dastur asosida bajarishga tayyorlanayotgan ijtimoiy guruh tushuniladi. Oliy o'quv yurtidagi ta'limning o'ziga xos xususiyatlari talabalarning boshqa ijtimoiy guruhlar bilan (ular xoh rasmiy, xoh norasmiy bo'lsin) muloqotga kirishishi uchun muhim imkoniyat yaratadi. Talabalik davrining asosiy xususiyatlaridan biri ijtimoiy yetuklikning jadal sur'atlar bilan ro'yobga chiqishidir. Ma'lumki, ijtimoiy yetuklik shaxsdan zarur aqliy qobiliyatni hamda ijtimoiy turmushda bajariladigan turli rollarni egallashga, farzandlarni tarbiyalashga, foydali mehnatda qatnashishga tayyorlanishni talab qiladi.

Mazkur jarayonning bosh mezonzlari va ko'rsatkichlari mutaxassis bo'lish imkoniyati va unga intilish tuyg'usi, jamoatchilik topshirig'i, mehnatda faollik ko'rsatish, qonunlar oldida javobgarlik, irodaviy zo'r berish, yosh otalik va onalik rolini o'tash, ijtimoiy guruhga rahbarlik qilish, sport bilan shug'ullanish, bo'sh vaqtni tashkil eta olish va hokazolardan iborat. Talabalik davri shaxsning ijtimoiy va kasbiy mavqeini anglashidan boshlanadi. Mazkur pallada yoshlar o'ziga xos ruhiy inqiroz yoki tanglikni boshidan kechiradilar. Jumladan, kattalarning har xil ko'rinishdagi rollarini tez sur'atlar bilan bajarib ko'rishga intiladilar, turmush



tarzining yangi jihatlariga ko'nika boshlaydilar. Katta odamlarning turmush tarziga o'tish jarayoni shaxsning kamol topish xususiyatlariga bog'liq ichki qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Hozirgi fan-texnikaning rivoji bir tomondan, axborotlarni vama'lumotlarni ko'paytirsa, ikkinchi tomondan, talabalarda mutaxassislikka oid bilimlarga barqaror qiziqishning yo'qolishiga olib keladi. Chunki qat'iylik, ijodiy izlanish, irodaviy zo'r berish o'rmini loqaydlik va faoliyatsizlik egallamoqda. Boshqacha aytganda, ular "tayyor axborotlarning quliga" aylanmoqdalar.

Kompyuter, internet, mobil telefonlar inson aqliy mehnatini yengillashtirib, ularni aqliy zo'r berishdan xalos etsa-da, yoshlarning ruhiy holatlarida o'ziga xos o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Ya'ni, yoshlar virtual olamningquliga aylanib ijtimoiy kommunikatsiyadan uzoqlashadilar va bu bevosita begonalashish hamda yolg'izlanishga olib kelishi tabiiy. Psixologlardan B.G.Anan'ev, N.V.Kuz'mina, N.F.Talizina, V.Ya.Lyaudis, I.S.Kon, V.T.Lisovskiy, A.A.Bodalev, A.V.Petrovskiy, M.G.Davletshin, I.I.Ilyasov, A.V.Dmitrieva, Z.F.Esareva, A.A.Verbitskiy, V.A.Tokareva, E.G'.G'oziev larning tadqiqotlariga ko'ra, olyi o'quv yurtlarida ta'lif olish talabalar uchun juda og'ir kechadi, chunki bu davrda shaxsning murakkab fazilatlari, xislatlari, sifatlari takomillashish bosqichida bo'ladi. Mazkur yosh davridagi ijtimoiy-psixologik o'sishning xususiyatlaridan biri o'qish faoliyatining ongli motivlari kuchayishidir. Talabalarda axloqiy jarayonlarning o'sishi sust amalga oshsa-da, xulqning mustaqillik, tashabbuskorlik, topqirlik, farosatlilik kabi eng muhim sifatlari takomillashib boradi. Shuningdek, ularda ijtimoiy holatlarga, voqelikka, axloqiy qoidalarga qiziqish, ularni anglashga intilish tobora kuchayadi. Psixologlarning tadqiqotlari shaxs turmush tajribasini egallahida unda o'zligini anglash vujudga kelishini, jumladan, shaxsiy hayotining mazmunini anglashi, aniq turmush rejalarini tuzishi, keljak hayot yo'lini belgilashi amalga oshishini ko'rsatadi. Talaba asta-sekin mikroguruuhning notanish sharoitlariga ko'nikib boradi, o'zining haq-huquqlari va majburiyatlarini bila boshlaydi, shaxslararo munosabatning yangicha ko'rinishini o'rnatadi, turmushdagi ijtimoiy rollarni amalda shaxsan sinab ko'rishga intiladi. Ulardagi romantik histuyg'ular voqelikka muayyan yondashishga birmuncha halaqit beradi. Buning asosiy sababi, talabalar turmushdagi yutuqlar va muvaffaqiyatsizliklarning ijtimoiy-psixologik ildizlari nimadan iborat ekanligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lmaydilar. Birinchi bosqich talabasi sifatida yoshlar 17-19 yosh oralig'ida o'z xulqi va bilish faoliyatini ongli boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmaydi va shunga ko'ra xulq motivlarining asoslanmaganligi, uzoqni ko'ra olmaslik, ehtiyotsizlik



holatlari ro'y beradi. Buning natijasida talaba yechim topish maqsadida o'zini yolg'izlanish girdobiga uradi. V.T.Lisovskiyning fikricha, 19-20 yoshlarda ayrim salbiy xatti-harakatlar ko'zga tashlanadi. Mazkur yoshda xohish va intilishning rivojlanishi iroda va xarakterdan ancha ilgarilab ketadi. Bunda odamning hayotiy tajribasi alohida rol o'ynaydi, chunki talaba shu tajriba yetishmasligi natijasida nazariya bilan amaliyotni, fantaziya bilan reallikni, romantika bilan ekzotikani, haqiqat bilan illyuziyani, orzu bilan xohishni, optimizm bilan qat'iylikni aralashtirib yuboradi. Talabalik davrida yoshlarning hayoti va faoliyatida o'zini o'zi kamolotga yetkazish jarayoni muhim rol o'ynaydi. Bunda o'zini boshqarishning tarkibiy qismlari hisoblangan o'zini o'zi tahlil qilish, o'zini o'zi nazorat etish, o'zini o'zi baholash va o'zini o'zi tekshirish kabilalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ideal "Men"ni real "Men" bilan taqqoslash orqali o'zini o'zi boshqarishning tarkibiy qismlari amaliy ifodaga ega bo'ladi. Talabalarning nuqtai-nazaricha, ideal "Men" ham muayyan mezon asosida yetarli darajada tekshirib ko'rilmagan bo'ladi, shuning uchun ular goho tasodifiy, g'ayritabiyy his etilishi muqarrar. Binobarin, real "Men" ham ularning haqiqiy bahosidan ancha yiroq ko'rinishda idrok qilinadi. Talaba shaxsining takomillashuvida bunday ob'ektiv qarama-qarshiliklar o'z shaxsiyatiga nisbatan ichki ishonchsizlikni vujudga keltiradi. O'quv yili boshida talabada ko'tarinki kayfiyat, oliy o'quv yurtiga kirganidan zavq-shavq tuyg'usi kuzatilsa, ta'limning shart-sharoiti, mazmuni, mohiyati, kun tartibi, muayyan qonun-qoidalari bilan yaqindan tanishish natijasida uning ruhiyatida keskin tanglik yuz beradi. Yuqorida aytilgan ichki va tashqi omillar ta'siri oqibatida talabalarning ruhiy dunyosida umidsizlik, ruhiy parokandalik kayfiyati, ya'ni istiqbolga ishonchsizlik, ikkilanish, hadiksirash kabi salbiy his-tuyg'ular namoyon bo'ladi. Bizningcha, oliy maktabning birinchi bosqichiga qabul qilingan talabalarga o'ziga xos munosabatda bo'lish mazkur davning boshlang'ich pog'onasida muhim shartlardan biri hisoblanadi. Ta'kidlab o'tilgan holatlardan qat'iy nazar, yigit va qizlarni oliy o'quv yurtiga qabul qilish ularda o'z kuchlari, qobiliyatları, aql-zakovatlari, ichki imkoniyatlari va irodalariga qat'iy ishonch tug'diradi. Anashu ishonch o'z navbatida to'laqonli hayot va faoliyatni uyushtirishga umid his-tuyg'usini vujudga keltiradi. Talabalik davrining keyingi bosqichlari xulqqa, voqelikka baho berishda imkoniyatidan tashqari talab qo'yish va qat'iyatlilik xususiyati bilan farqlanadi. Shuning uchun talabalar har doim printsipial bo'la olmaydilar. Ba'zan ulardagi qat'iyatlilik kattalarga nisbatan salbiy munosabatdek tuyuladi. Yu.A.Samarinning ta'kidlashicha, talabalarning kamol topishida har xil ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, o'ziga xos qarama-



qarshiliklar, ichki ziddiyatlar mavjud bo'ladi. Odatda talabalar uchinchi bosqichlarga kelib oliv o'quv yurti hamda mutaxassislikni to'g'ri tanlagani haqida yana jiddiy o'ylay boshlaydilar. Shuningdek, ularda ijodiy tafakkur, muayyan hayotiy tajriba, o'zlashtirilgan bilimlarni tartibga solish asosida his-tuyg'ular, qarashlar, axloqiy qadriyatlar, o'zligini anglash va barqaror e'tiqod shakllanadi. Talabalar hukm va xulosa chiqargach, o'z xatti-harakatida qat'iy turib ularni himoya qiladi, hayotning turli sohalari bo'yicha har xil darajadagi ko'nikma va malakalarga, nazariy bilimlar, ijtimoiy-psixologik tushunchalarni amaliy faoliyatga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Kasb tanlash, o'qish, turmush qurishga qaratilgan jamiyatning ushbu eng faol qatlami sifatida shaxslarning ijtimoiy, ishlab chiqarish va mehnat, oilaviy hayotdagi, fuqarolik faoliyatidagi o'mini aniqlashga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Oliy ta'lim muassasasi ijtimoiy institut sifatida talaba shaxsini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash, talabalarning axborot-kontseptual, kognitiv, ijtimoiy-madaniy bilimlari bazasini yaratish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat doirasida uni ijtimoiy munosabatlar tizimiga joriy etishni shakllantirish uchun mo'ljallangan ahon psixologiyasida xulq-atvor, muomala va faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillarning eng muhimi tariqasida insonning hissiy hayoti yotishi aksariyat olimlar tomonidan ta'kidlab o'tilgan.

Bu talqinning haqqoniyligiga hech qanday e'tirozlar bo'lishi mumkin emas, chunki mazkur omil ustuvor, dalil taqozo qilmaydigan tarkibiy qism sifatida tadqiqot predmeti mohiyatiga singib ketgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, talabalar muomalasining, xulq-atvorining kechishi, faoliyatining muvaffaqiyatli yakunlanishi ko'p jihatdan shaxsning hissiy holatlariga, izohlanishi murakkab bo'lgan ruhiy kechinmalarga, yuksak his-tuyg'ularga bog'liq. His-tuyg'ularning mustahkamligi, barqarorligi, mukammalligi sifatlarining mavjudligi ularning dinamik stereotiplari tipiga aylanganidan dalolat beradi. Faoliyat va xulqni shaxs tomonidan ongli ravishda boshqarish uslubi shakllanganligini bildiradi. Tabiatning tarkibiy qismlari va jamiyatning a'zolari bilan turli shakldagi, har xil xususiyatli munosabatga kirishishi, ular bilan muomala qilish maromlarining davriy o'zgarishini vujudga keltiradi. Ana shu o'zgarish tufayli omad va omadsizlik, kelajakka ishonch va umidsizlik, romantika va haqiqat, simpatiya va antipatiya, progress va regress, jo'shqinlik va tushkunlik, faollik va sustlik kabi birinchisi ijobiy va ikkinchisi salbiy ruhiy hodisalar kelib chiqadi. Binobarin, jamiki narsaning boshlang'ich asosi, manbai hissiyot degan g'oyani, uning qiymatini birmuncha qadrini tushiradi, lekin ikkinchi darajali omilga aylantirib qo'ymaydi.



Omillarning birlamchi va ikkilamchi darajalar sifatida baholanishi ushbu psixologik hodisa mohiyatini oqilona talqin qilish zaruriyatini vujudga keltiradi. Shunday ekan, ularning mohiyatini, keltirib chiqaruvchi sabablarini, harakatlantiruvchi kuchlarni muayyan dalillarga asoslanib tahlil qilish muammozi yuzaga keladi. Talabalar faoliyati va xulqining muayyan qonuniyatlargaga asoslangan holda amalga oshishi ham ob'ektiv, hamsub'ektiv shart-sharoitlarga bog'liq. Tabiiy omillarni keltirib chiqaruvchi ob'ektiv shart-sharoitlar, ya'ni mikro va makro muhit, moddiy borliq, yordamchi vositalarning mavjudligi, ularning yuksak talablarga javob berish imkoniyati, tashqi qo'zg'atuvchilarning bezararligi, vaqt va fazoviy o'lchovlarning mutanosibligidan tarkib topadi. Talabalar xulqi va faoliyatining namoyon bo'lishi uchun tabiiy shart-sharoitlar tizimi yaxlit holda ishtirok etishi, ularning muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillar majmuasi tariqasida xizmat qilishi mumkin. Tabiiy shart-sharoitlardagi to'kislilikdan tashqari ayrim yetishmovchiliklar va uzilishlarning sodir bo'lishi nuqsonlarni keltirib chiqaradi, buning oqibatida talabalarda ruhiy kechinmalar faolligi, ildamligi, maqsadga yo'nalganligi buziladi. Tabiiy shart-sharoitlar, muhit ta'sirida talabalar ruhiy olamida bir qator keskinlikka yo'nalgan ham sifat, ham miqdor o'zgarishlari vujudga keladi. Ular yangilanishlarda, yangi fazilatlar, xislatlar tug'ilishida namoyon bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, tabiiy muhitning tarkibiyqismi bo'lmish geografik muhit bu borada katta rol o'yndaydi. Ko'pincha u birinchidan, biologik shartlangan talaba sifatlariga ta'sir etib, fenotiplarni genotiplarga aylantiradi. Ikkinchidan, talabalar rivojlanishida xarakterologik xususiyatlarning tabiiy ravishda shakllanishiga ta'sir o'tkazadi. Natijada muhit bilan uyg'unlik ta'minlanishiga zamin yaratadi. Talabalar shaxsining shakllanishida sub'ektiv shart-sharoitlar shaxslararo munosabatlarning, faoliyatning, xulq-atvorning ijtimoiy turmushda samarali amalga oshishini uzluksiz ravishda ta'minlab turadi. Sub'ektiv shart-sharoitlarning qatoriga talabalar shaxsining barqarorligi, xarakterining mustahkamligi, ehtiyoj, motiv, maslak, salohiyatning puxtaligi, o'zini o'zi boshqarish uslubining qat'iy ravishda shakllanganligi kiradi. Odatda ob'ektivva sub'ektiv shart-sharoitlardagi o'zgarishlar tufayli ijobiy yoki salbiy xususiyatlari psixologik holatlar, hodisalar, kechinmalar ustuvorligi yuzaga kelib moddiy asos vazifasini bajaruvchi oliy asab faoliyatining ritmikasini, ishchanlik qobiliyatini susaytiradi.

Buning oqibatida faoliyat, xulq-atvor va shaxslararo munosabatlar amalga oshishida odatiy sa'y-harakatlar, jarayonlar buzila boshlaydi, favqulotda asabiylik, ruhiy nuqsonlilik, qonuniyatdan chetga og'ishlik, noxush kechinmalar hokimligi



yetaqchilik qiladi. Shu sababdan talabalar faoliyati, xulq-atvori va shaxslararo muomalasining mahsuldorligi, sobitqadamliligi, maqsadga yo'nalganlilik sifatlarining dominantliliqi yo'qoladi. Natijada ezgu niyatlar armon tariqasida talaba psixologiyasida hukm sura boshlaydi. Talabalar hayotida ijtimoiylashuv jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiylashuv deganda, bir tomondan, mavjud ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar, madaniy belgilarni o'zlashtirish va shu asosda ustanovkalar, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy ehtiyojlar va shu kabilarni ishlab chiqish tushuniladi. Ikkinchi tomondan esa, individning ijtimoiy hayotga kirishuvi, ijtimoiy sifatlarga birikish jarayonini anglatadi. Umumiy holatda ijtimoiylashuv jamiyat a'zolarining "tsivilizatsiyasi"ni bildiradi.

Muloqot talabalarning ijtimoiy faoliyati sifatida ular tomonidan ijtimoiyrollarning anglanishini ifodalaydi. Bu orqali muloqotning ahamiyati va undagi ijtimoiy hamda shaxsiy determinantlar adekvat tarzda idrok qilinadi. Inson ijtimoiy xulqining turli shakllari ijtimoiy rollar deb ataladi. Ma'lumki, ijtimoiy rollar muloqotning ahamiyatlilik tizimida quyidagi darajalarni ifodalaydi: do'st tushunchasining shartlanganligini ifodalaydigan shaxslararo ta'sir; guruhning ijobiy bahosini ifodalaydigan guruhiy ta'sir; madaniy-tarixiy ahamiyatlilikni ifodalaydigan jamiyat tomonidan tan olinganlik darajasi. Mazkur darajalar V.G. Krivis'ko tomonidan tavsiflangan bo'lib, barcha sifatlar talabalik davriga xos. Oliy o'quv yurtlarida ta'lim oluvchilar guruhi o'n beshtadan o'ttizkishigacha qamrovga ega. Ya'ni, e'tibor bilan qaralsa, talabalar guruhi o'z o'mida bir nechta mikroguruhchalarni birlashtiradi. Yoshlar uzlusiz ravishda oliy o'quv yurtida 6-8 soatni birgalikda o'tkazadilar. Shunday qilib, ular ta'lim muassasasida doimiy aloqalarni amalga oshiradilar. Talabalar umumiyligi maqsadga ega bo'lgan hamkorlikdagi faoliyatda bo'ladilar. Ana shu hamkorlik natijasida ular o'rtasida simpatiya, do'stona munosabat, o'zaro yordam kabi emotSIONAL aloqalar tarkib topa boshlaydi. Shaxslararo, guruhiy munosabatlar davomida identifikatsiya jarayoni ro'y beradi. Guruhda faoliyat olib borar ekan, talaba guruhi a'zolarining qiziqishlari, qadriyatlari, xulq-atvorini birgalikda baham ko'radi. Shu asosda talabada "biz" va "ular" sifatidagi anglash jarayoni sodir bo'ladi. Talabalarning shaxslararo munosabatlardagi ehtiyoji ishonchli tengdoshiga nisbatan yo'naltiriladi. Lekin bunday insonning topilmasligi ehtiyojning qondirilmasligi hamda yolg'izlik hissining paydo bo'lishiga olib keladi. Vaholanki, talabalar nafaqat shaxs sifatida, balki o'z-o'zini namoyon qilish sub'ekti sifatidagi shakllanishi ro'y beradigan vaziyatda o'zining tushunilmasligini his qilishi ichki ruhiy nomutanosiblikka sabab



bo'lishi mumkin. Do'stona munosabatlar asosidagi shaxslararo intilish "shaxslararo attraktsiya" tushunchasini ifodalaydi

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, hissiy-emotsional baho insoniy munosabatlarning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Guruhdagi o'zaro ta'sir jarayonida yo'lg'izlik hissining paydo bo'lishiga sub'ektning ijtimoiy o'rni mavjud emasligi, attraktsiya namoyon bo'lishida tashqi omillarning yetishmasligi, ya'ni affiliatsiya refleksiya, hissiy-emotsional holat, fazoviy yaqinlik kabilar sabab bo'ladi. Agar affiliatsiya o'zgalarga yoqishga asoslansa, ahamiyatli shaxs sifatida his qilinish bo'lsa, refleksiya insonning o'z-o'zini shaxs sifatida anglashi va o'zgalar tomonidan qay darajada idrok qilinishini tahlil qilishga asoslanadi. O'z-o'ziga nisbatan noadekvat baho berish (past yoki yuqori), o'zgalar fikrini mensimaslik holatlari qarama-qarshiliklarga olib kelishi mumkin, bu guruhda alohida shaxs sifatida e'tirof etilishga halaqit beradi. O'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yishdagi ijobiy emotsiyalarni paydo qiladigan boshqaomillar guruhda sifatli muloqot doirasini yaratish imkonini beradi. Bu esa ijtimoiy munosabatlardagi psixologik barqarorlik va hissiy-emotsional xotirjamlikning vujudga kelishiga zamin yaratadi. Talabalar guruhida ijtimoiy rollar taqsimoti u darajada ko'p bo'limganligi sababli shaxslararo muloqotdagi muammojar tezda ko'zga tashlanadi. Muayyan rolni bajarmaslik ijtimoiy, emotsiyal, psixologik, madaniy farqlarni yuzaga chiqaradi va guruh tomonidan talabani pisand qilmaslik holatiga olib keladi. Talabalar guruhida muloqotga kirishish muammosi guruhnini tashkil etuvchi tarkibiy qismlarga bog'liq ravishda murakkab lashib boradi. Oliy o'quv yurtlarida ta'lim oluvchilar yo'nalishlardan kelib chiqib shakllantirilsa-da, ularda bo'lg'usi guruhdoshlarning psixologik mutanosibligi hisobga olinmaydi. Ba'zi talabalar o'zlarini hali ham maktab davridagi boshqaruvchi yoki rahnamolikni istaydigan o'quvchi rolida tasavvur qiladi. Ularga talabalik mavqeiga kirishishlari uchun ma'lum bir muddat talab etiladi. Yangi ijtimoiy rolga kirishish, talabalikka xos bo'lgan hayotiy pozitsiyani egallash ularning tasavvur dunyosida noaniq shakllarda ifodalanadi. Biroq ular o'z rollariga shiddat bilan kirishib, o'z mavqeい doirasidagi afzalliklardan foydalana boshlaydilar. Mazkur vaziyatni guruhdagi oldindan liderlikka moyilligi kuchli bo'lgan talabalar murakkablashtiradilar. Ulardagi faollik natijasida o'rta darajadagi talabalarning yangi ijtimoiy muhitga moslashishlarini, xohish-istikclarini namoyon qilishga yo'l qo'ymasliklari hodisasi uchraydi. Guruhda ijtimoiylashuvning mexanizmi bo'lgan identifikatsiya, ya'ni sub'ektning o'zini guruhbilan solishtirishi, aynanlashtirishi jarayoni deb hisoblanadi.



Identifikatsiya, mutaxassislarning fikricha, insonni xavotirlikdan, asabiy qo'zg'olishlardan xalos etadi va ichki nizolarning zaiflashuviga olib keladi. Guruhiy jamoaning tashkiliy, ijtimoiy, emotsiyal ahamiyatini anglash davomida inson o'z-o'zini identifikatsiya qilish –o'zini namoyon qilish, o'zi o'zini ta'kidlashga ehtiyoj sezadi. Bunday jarayonda qisman yakkalanish ro'y beradi. Agar identifikatsiya insonning guruhiy mansubligini anglash bilan bog'liq bo'lsa, o'zini o'zi identifikatsiyalash shaxs sifatidagi takomillashuvning shartidir. Aytish lozimki, bunday takomillashuv jarayonida talabalar o'z "Men"ini yaqqol ifodalangan holda saqlashlari va takomillashtirishlari murakkab kechadi. Natijada yakkalanishga intilish kuchayadi va ular ijtimoiy aloqalardan o'zlarini olib qochadilar. Talabalarga tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, jizzakilik, qo'rquv, xavotirlanish va frustratsiya xos bo'lib, ular o'zlariga nisbatan rahmdillikni his qiladilar, pessimist bo'ladilar, o'zgalardan yovlik, dilsiyohlik, qarshilik, ko'ngilsiz munosabat kutadilar, keljakni esa faqat yomon bo'yoqlarda idrok qiladilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, talabalar guruhining shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshadi. Shu sababli ham ularda ilk ijtimoiy tasavvurlarning ifodalanishi asta-sekinlik bilan murakkablashib, mustahkamlanib boradi. Bu o'z navbatida ularning o'z oldilariga istiqbol rejalarini adekvat tarzda belgilashlarini naioyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Artanova, A.A. Perejivanie odinochestva kak faktor razvitiya lichnostnogo potentsiala studentov-pervokursnikov: dis. ... kand. psixol. nauk: 19.00.01 / Artanova Alla Anatolievna. -M., 2008. -167 s.
2. Kon, I.S. V poiskax sebya: lichnost' i yevo samosoznanie / I.S. Kon. -M.: Politizdat, 1981. -151s.
3. Mayers, D. Sotsial'naya psixologiya, 6-e mejdunarodnoe izdanie / D.Mayers. - SPb.: Piter, 2002g. -752 s.
4. Tixonova, Ye. V. Sotsial'no-psixologicheskaya diagnostika studentov kak osnova professional'noy orientatsii. / Ye. V. Tixonova // Znanie. Ponimanie. Umenie. -2008. -No 2. -S. 49-545.
5. Goziyev, E.G. Ontogeneticheskaya psixologiya / Ergash Goziyev, Ozbekiston Milliy universiteti –T: Noshir.2010. 360 b.